



MAHALLIY DARAJADA SOLIQ RISKLARI VA SOLIQ NAZORAT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

PhD Turdaliyev Eldor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-5441-3118

eldor.turdaliyev@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq organlari tomonidan tekshirish va soliq to'lovchilar faoliyatini nazorat qilish amaliyotini takomillashtirish orqali ularning mumkin bo'lgan soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, adolatli soliqqa tortishni ta'minlash va pirovardida soliq tizimining umumiy samaradorligiga hissa qo'shish imkoniyatlarini oshirishi mumkinligi organilgan va xulosalar shakllantirilgan. Maqolada xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitida tatbiq etishning afzalliklari va muammolari yoritilib, milliy soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

НАЛОГОВЫЕ РИСКИ НА МЕСТНОМ УРОВНЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ СИСТЕМ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ

PhD Турдалиев Эльдор

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В статье представлены возможности совершенствования практики налоговых органов в области аудита и контроля деятельности налогоплательщиков, повышения их способности выявлять возможные случаи уклонения от уплаты налогов, обеспечивать справедливое налогообложение и, в конечном итоге, способствовать общей эффективности налоговой системы, а также сделаны выводы. В статье освещаются преимущества и проблемы применения зарубежного опыта в условиях Узбекистана, разрабатываются предложения и рекомендации по совершенствованию национальной налоговой политики.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

TAX RISKS AT THE LOCAL LEVEL AND DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TAX ADMINISTRATION THROUGH TAX CONTROL SYSTEMS

PhD **Turdaliyev Eldor**

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article summarizes and draws conclusions on the possibility of improving the practice of tax authorities in auditing and controlling taxpayers' activities, identifying possible cases of tax evasion, ensuring fair taxation, and ultimately contributing to the overall efficiency of the tax system. The article highlights the advantages and problems of applying foreign experience in the conditions of Uzbekistan, and develops proposals and recommendations for improving national tax policy.*

Keywords: *tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimining samarali faoliyat yuritishi soliq to'lovchilar faoliyati ustidan amalga oshiriladigan soliq nazoratining mukammal tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Soliq nazorati davlat moliya siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash, soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish hamda soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda riskka asoslangan nazorat tizimlarini joriy etish soliq nazoratining mazmuni va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini amalga oshirishning nazariy asoslarini o'rganish orqali mazkur jarayonning mohiyati, vazifalari va iqtisodiy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, uning samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslash muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazoratini amalga oshirish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan Stiglis (2000), Masgreyv (1989) va Samuelsonlar (2010) soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Shuningdek, M. Olson, A. Smit va F. Shnayder tadqiqotlarida soliq nazorati va soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, samarali soliq nazorati soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MDH davlatlari olimlaridan Gryaznova, Goncharenko (2018), Mayburov (2020) va Yutkina (2019) ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat byudjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlardan Abdurahmonov, A. Vahobov, Sh. Mustafoqulov, B. Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning

institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar (Abdurahmonov, 2020).

Olennikovning (2017) fikricha, soliqlardan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to'lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi.

Makoveskiy, Zareskaya (2017) kabi olimlar soliqlardan qochishning eng ko'p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo'lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadi, ya'ni ularning ta'biricha, "Soliqlarni optimallashtirishda soliq to'lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda holda, qonuniy asoslarda soliq to'lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini tashkil etishdir" deydi.

Rossiyalik olim Aleksandrova (2017) bu boradagi tadqiqotlari natijasida "Soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o'tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo'yimoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo'llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo'yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir" deb ta'kidlaydiki, muallif soliqlardan bo'yin tovlash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi.

A.R.Abdullina fikricha, soliqlardan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarni monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarni o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashtirilmaganligi oqibatida soliqlardan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo'lishiga ta'sir qilmoqda (Юткина, 2019).

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, soliq nazorati bo'yicha nazariy qarashlar yetarlicha shakllangan bo'lsa-da, soliq to'lovchilar faoliyatini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda ilmiy xulosalar ishlab chiqish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mahalliy darajada soliq risklarini tahlil qilish — fiskal organlarga tadbirkorlik sub'ektlarining soliq to'lash qobiliyati va soliqlardan bosh tortish ehtimolini oldindan baholashga yordam beradi. Bu jarayon soliq ma'muriyatining ishonchliligini va maqsadli nazorat choralari kuchaytirish imkonini beradi.

Asosiy maqsadlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, soliqlardan bo'yin tovlash holatlarini oldini olish, soliq to'lovchilarni segmentatsiya qilish, resurslarni samarali taqsimlash va soliq auditini maqsadli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq risklarini baholash orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish metodologiyasida ma'lumotlar yig'ish va tizimlashtirish bo'yicha har bir tuman, shahar yoki viloyat darajasidagi soliq to'lovchilarning faoliyati, so'nggi 3-yillik soliq to'lovlari dinamikasi, QQS va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilish lozim bo'ladi.

Elektron hisobvara-fakturalar, kontragentlar o'rtasidagi muomalalar, ishchi kuchi va import-eksport faoliyati bo'yicha ma'lumotlar jamlanishi, xavfli segmentlarni aniqlash bo'yicha sohaviy tahlil asosida yuqori riskli sohalar (masalan, qurilish, ulgurji savdo, axborot texnologiyalari) belgilanishi, qora tizmalardagi kontragentlar bilan aloqada bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga alohida e'tibor qaratilishi zarurdir.

Soliq xavflarini aniqlash indikatorlari, tahlil manbalari va baholash metodologiyasi tizimi

Soliq risk indikatorlari	Tahlil manbai	Baholash usuli
Soliq to'lovchi faoliyatidagi keskin o'zgarishlarni tahlil va monitoring qilib borish	Soliq xizmat organlari va tashqi manba axborot tizimi	Sintez va tahlilni qo'llash
Daromadlar bilan soliq to'lovlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash	Buxgalteriya hisoboti, bank ma'lumotlari	Koeffitsientli tahlil
Nazorat kross-hujjatlarda ziddiyatlarni aniqlash	EHF ma'lumotlari	Logik-qiyosiy tekshiruv
QQS qaytarishda yuqori miqdorda so'rovlarga asoslanib soliq riskini aniqlash	Soliq qo'mitasi ma'lumotlari	Risk indeksiga kiritib borish
Soliq qarzlarning muntazam takrorlanishi va soliq risklarini o'zaro bog'lash	Soliq to'lovchilar reestri	Tarixiy trend tahlili

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Hududiy soliq xatar ko'rsatkichlari bo'yicha aholi zichligi, ishbilarmonlik faolligi va ta'lim saviyasi kabi omillar hisobga olinib, risk indeksleri shakllantirish orqali hududiy soliq tushumlari va hisobot topshirish intizomi asosida hududiy xavf profili tuziladi.

Hujjatlardagi mos kelmasliklar, narxlar intervalidagi normadan og'ishlar va hisobotlar o'rtasidagi ziddiyatlar avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tekshirish maqsadga muvofiqdir. Yuqori aylanma, ammo soliq to'lovlari past bo'lgan sub'ektlarga alohida e'tibor qaratiladi. Real vaqtda monitoring va tizimiy baholash har hafta/oyda ma'lumotlar yangilanib, risklar qayta baholanadi. Soliq organlari mazkur baholashni joylardagi soliq inspeksiyalari orqali amalga oshiradi. Murojaatlar va tahrir mexanizmlari bo'yicha soliq to'lovchi baholash natijalari bilan norozi bo'lsa, shaxsiy kabinet orqali murojaat qilishi mumkin va 10 ish kuni mobaynida e'tiroz ko'rib chiqilib, tegishli tuzatishlar amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari soliq organlari bilan munosabatda turli masalalar yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu murojaatlarga tezkor, xolis va asosli tarzda javob berish — samarali soliq ma'murchiligining muhim shartlaridan biridir. Javob berishdagi metodlar quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida shakllanadi:

1. Elektron shaklda javob berish bo'yicha soliq to'lovchilar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), "Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti" yoki Soliq.uz platformasi orqali murojaat yo'llashlari mumkin. Javob berish avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi, murojaatchiga elektron hujjat tarzida javob yuboriladi. Afzalliklari hujjat aylanmasi shifrlangan va hujjatlar saqlanadi va tezkor fidbek va xabarnoma orqali holatni kuzatib borish imkoni mavjud bo'ladi.

2. Yozma rasmiy javob berish bo'yicha agar murojaat rasmiy xat shaklida yuborilgan bo'lsa, soliq organi tomonidan javob ham rasmiy yozma shaklda beriladi va bunda 15 ish kuni ichida (yoki qonunchilikda belgilangan muddatda) javob taqdim etilishi lozim bo'ladi.

3. Qabul va uchrashuv orqali javob berish bo'yicha soliq organlarining rahbar va mas'ullari tadbirkorlar bilan shaxsan uchrashuvlar tashkil qiladi. Ochiq eshiklar kuni, tadbirkorlar kunlari va joylardagi qabullar davomida murojaatlar to'g'ridan to'g'ri muhokama qilinib, og'zaki javob berilishi mumkin. Ushbu usul, ayniqsa, murakkab va huquqiy yondashuv talab qilinadigan masalalarda samarali hisoblanadi.

4. Call-markaz va ishonch telefoni orqali javob bo'yicha Soliq qo'mitasi va uning hududiy organlari ishonch telefonlari orqali fuqarolar va tadbirkorlar murojaatlariga javob beradi. Murojaat etish uchun alohida navbat yoki hujjat talab qilinmaydi. Javob beruvchi xodimlar maxsus o'qitilgan bo'lib, qonunchilik asosida tushuntirish beradi.

5. Murojaatni qayd etish va monitoring tizimida barcha murojaatlar maxsus raqam bilan ro'yxatga olinadi va javob berish muddati, mas'ul shaxs, murojaatchi ma'lumoti va boshqa

ko'rsatkichlar elektron monitoring tizimida kuzatiladi. Bu orqali murojaatlar ijrosi ustidan nazorat ta'minlanadi va ishonchlilik oshadi.

6. Murojaat natijalari bo'yicha qayta baholash mexanizmi bo'yicha agar tadbirkor javobdan qoniqmasa, u yuqori turuvchi organga shikoyat qilish huquqiga ega hamda murojaatning natijasi adolatsiz yoki bir tomonlama deb baholansa, tuzatishlar kiritilishi mumkin. Qayta ko'rib chiqish jarayonida ilk baho, yuridik asoslar va yangi dalillar tahlil qilinadi. Soliq ma'murchiligida tadbirkorning murojaatlariga javob berish faqat axborot berish emas, balki ishonchni mustahkamlash va faol muloqotni ta'minlash vositasidir. Turli usullarda javob berish imkoniyati hokimiyatning ochiqqligini va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Metodologiyaning afzalliklari mahalliy o'zgarishlarga moslashuvchanlik, real vaqtda xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyati va soliq to'lovchilarni adolatli baholash asosida nazoratni samarali amalga oshirish hisoblanadi.

Hozirgi global iqtisodiyotda soliq nazorati samaradorligini oshirish uchun an'anaviy usullardan tashqari, raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tahlil usullari keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuvlar nafaqat soliqdan bo'yin tovlash holatlarini aniqlash, balki fiskal tartibni ta'minlash va soliq to'lovchilarni segmentlashga xizmat qiladi.

2-jadval

Soliq nazoratida zamonaviy tahlil usullari

Metodologiya nomi	Qisqacha izoh
Risk-modellashtirish (Risk Scoring)	Soliq to'lovchilarga nisbatan ball berish asosida taxmin qilish
Data Mining	Ichki va tashqi ma'lumotlardan tugmalar, korrelyatsiyalar aniqlash
Tax Gap Analysis	Ro'yxatdan o'tgan va haqiqiy tushumlar o'rtasidagi farqni hisoblash
Geospatial Risk Mapping	Hududiy kesimda risklarni xaritada aks ettirish (GIS integratsiyasi)
AI/ML asosida tahlil	Mashinali o'rganish vositasida soliq risk modellarini takomillashtirish

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Raqamlashtirilgan muhitda soliq to'lovchilar faoliyatini tahlil qilish uchun elektron hujjatlar, onlayn hisobotlar va raqamli identifikatorlar orqali soliq auditi amalga oshiriladi. Bu usul soliq organlariga soliq to'lovchi hisobotlaridagi tafovutlarni aniqlash, vaqt va resurs tejash, avtomatlashtirilgan xatolarni baholash imkonini beradi. taxminan har bir soliq to'lovchiga ularning soliq xulqlari va moliyaviy faoliyatiga qarab risk indeksi belgilanadi. Bu indeks quyidagi omillar asosida shakllanadi:

- soliq to'lovchining faoliyatidagi o'tmishdagi qoidabuzarliklar;
- hisobotlardagi nomutanosibliklar;
- sohaviy va regional tahlil natijalari.

Ma'lumotlarni keng qamrovli tahlil qilish orqali turli axborot tizimlaridagi ma'lumotlar jamlanib, ularning o'zaro bog'liqligi maxsus algoritmlar orqali tahlil qilinadi. Masalan, bank operatsiyalari, eksport-import ma'lumotlari, mulk va aktivlar haqidagi ro'yxatlar hisoblanadi. Ushbu tahlil orqali yashirin daromadlar va deklaratsiya qilinmagan faoliyatlar aniqlanadi. Harakat sxemalarini tahlil qilish bo'yicha tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar grafik va blok-sxema orqali aniqlanadi. Bu usul kompaniyalar o'rtasidagi noqonuniy operatsiyalarni fosh etishga yordam beradi. Tadbirkor faoliyati o'sha sohadagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Masalan, savdo sohasida faoliyat yurituvchi korxonada daromadlar va soliq to'lovlari soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan ancha kam bo'lsa, tahlil uchun asos hisoblanadi.

Soliq nazoratida zamonaviy tahlil usullarini joriy etish orqali nazoratning sifat va samaradorligi oshadi, inson omilining ta'siri kamayadi, soliq adolati ta'minlanadi, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda kuchli mexanizm yaratiladi. Bu usullar mahalliy xususiyatlarga moslashtirilgan holda ishlab chiqilsa, ularning amaliy samarasi yanada yuqori bo'ladi.

Xavfni tahlil qilish (risk analiz) dasturi orqali aniqlangan tafovutlar bo'yicha shakllangan nomzod sub'ektlarda belgilangan muddatlarda soliq tekshiruvlarini amalga oshiriladi. Soliqlar va yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash faktlarini aniqlaydi va tegishli choralar ko'radi va onlayn nazorat-kassa mashinalari yoki virtual kassalarini, 2 D skanerlarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi. Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxona va tashkilotlarni tugatish bo'yicha ishlarini amalga oshirish va ularning hisobini yuritiladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni yuritish, tahlilini amalga oshirish, belgilangan tartib bo'yicha ishlarni sudlarga va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborib, soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Soliqqa oid xavflarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va qo'llab – quvvatlash bo'yicha (ISO 31000, IMF va OEC D kabi xalqaro standartlarga asoslangan CRM (Compliance Risk Management) tizimini yaratish va uni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiqdir. Rioya qilmaslik xavfini aniqlash, tahlil qilish va ustuvorlashtirish zarur bo'ladi. Soliq to'lovchilarning qaysi toifalari yoki ularning xatti - harakatlari davlat budjeti uchun eng katta xavf tug'dirishini aniqlash va ularni ustuvorlik bo'yicha tartib ishlab chiqish, xavflarni kamaytirish strategiyalari va soliq qonunchiligiga rioya qilishni yaxshilash bo'yicha rejalarni ishlab chiqish, soliq qonunchiligi buzilishini kamaytirish uchun profilaktikadan tortib nazoratgacha bo'lgan chora-tadbirlarni taklif etish, soliq to'lovchilarni segmentatsiyalash va xavf modellarini yaratish lozim.

Soliq to'lovchilarni xavf darajasi, faoliyat turi, xatti-harakatlari, buzilishlar tarixi kabi mezonlar asosida tasniflash va tekshiruvlar uchun aniqroq tanlov qilishga asos yaratish maqsadga muvofiqdir. Boshqa bo'limlarda xavfga asoslangan yondashuvlarni joriy etish, audit, qarzdorlikni undirish, ro'yxatga olish, xizmat ko'rsatish va o'qitish bo'limlari bilan birgalikda xavf modellarini kundalik faoliyatda qo'llash, umumiy xavflarni boshqarish bo'yicha kompaniyalarni muvofiqlashtirib borish zarurdir.

Bundan tashqari, yuqori xavfli tarmoqlar yoki soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalariga qarshi yirik tashabbuslarni boshlash va boshqarish, tahlil natijalarini amaliyotga tatbiq etish va yig'ilgan barcha ma'lumotlar va modellarni inspektorlar va hududiy xodimlar uchun tushunarli va qo'llaniladigan shaklga keltirish, xavflar tahlili orqali strategik rejalashtirishni qo'llab – quvvatlash, strategik va operatsion rejalarni shakllantirishda foydalanish uchun rahbariyatga xavflarga oid tahliliy ma'lumotlarni taqdim etib borish, xodimlarning xavfni boshqarish sohasidagi malakasini oshirib borish, "CRM", xavflarni baholash va soliq to'lovchilar segmentatsiyasi bo'yicha markaziy idora va mintaqaviy xodimlar uchun o'quv materiallari ishlab chiqish va treninglar o'tkazishga ustuvorlik berish o'zining ijobiy ma'nosiga egadir.

Ma'lumki, soliq qarzi bu soliq to'lovchining belgilangan muddatda to'lamay qoldirgan majburiyatli to'lovi bo'lib, ushbu qarzlarni o'z vaqtida undirish davlat budjeti barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, soliq organlari tomonidan belgilangan jarayonlar va majburiy undiruv vositalari orqali qarzlarni qoplash choralari ko'riladi.

Soliq qarzining vujudga kelish sabablari asosan, soliq to'lovchining moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi, soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etmaslik, soliq summasini noto'g'ri hisoblash yoki bahsli holatlar, qonunchilikdagi o'zgarishlardan xabardor emaslik va atroflicha rejalashtirilmagan biznes faoliyati hisoblanadi.

Agar, majburiy undiruv choralari va tartibi bo'yicha agar belgilangan muddat ichida qarz qoplanmasa, soliq organi majburiy undiruv yurituvini qo'llaydi. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi bosqich - soliq qarzini bank hisobidan undirish bo'yicha soliq organi qarzdor to'lovchining bank hisob raqamlariga inkasso topshirig'i yuboradi va qarz summasi avtomatik ravishda hisobdan yechib olinadi. Inkasso faqat amaldagi hisob raqamlar uchun amal qiladi.

Ikkinchi bosqich - mulkka arest solish va musodara qilish bo'yicha qarz summasi bankda mavjud bo'lmasa, to'lovchining mol-mulki hisobga olinadi va qimmatbaho aktivlar, transport vositalari yoki ko'chmas mulk aniqlanib, ularga arest qo'yiladi hamda sud qarorisiz ma'lum toifadagi mol-mulklar realizatsiya qilinishi mumkin.

Uchinchi bosqich - sudga murojaat qilish orqali agar avvalgi choralar samara bermasa, soliq organi sudga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi va sud qarori asosida qarzdor mulkidan majburiy undiruv amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqich - soliq to'lovchiga nisbatan cheklovlar belgilanishi ya'ni qarz borligi sababli xorijga chiqish taqiqlanishi mumkin va soliq qarzi mavjud bo'lgan korxonalarga litsenziyalar yoki davlat buyurtmalari berilmaydi.

Beshinchi bosqich - soliq qarzi undiruvda axborot texnologiyalari rolining oshishi orqali hozirgi kunda majburiy undiruv jarayonida raqamli platforma va ERP tizimlardan foydalanish keng yo'lga qo'yilmoqda. Bunda banklar bilan integratsiyalashgan onlayn inkasso tizimi, soliq to'lovchining faoliyati, hisob-kitoblari va aktivlari to'g'risidagi avtomatik monitoring va elektron soliq qarzdorlari reestrda joylashtirish va avtomatik xabardor qilish xizmatlari hisoblanadi.

Oldinchi bosqich - soliq to'lovchining huquqlari bo'yicha soliq to'lovchi majburiy undiruv jarayonida soliq qarzi hisob-kitobini qayta ko'rib chiqishni talab qilish, soliq bahslarini hal etish uchun ariza berish va qarzni bo'lib-bo'lib to'lash yoki muddatni kechiktirish bo'yicha murojaat etish huquqiga ega. Soliq qarzini majburiy undiruv orqali undirish soliq intizomini mustahkamlashga, davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda shaffoflik va tadbirkorlar huquqlariga rioya qilish asosiy prinsiplardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot tizimlari va tahlil usullari majburiy undiruvni tezkor, adolatli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Soliq organlari tomonidan soliq qarzdorlikni undirish va soliq majburiyatlarini majburiy ijro etish bo'yicha milliy siyosat, tartiblar va huquqiy sharhlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur bo'ladi. Buning uchun esa:

muddatidan o'tgan qarzlarni boshqarish dasturini ishlab chiqish va nazorat qilish - qarzdorlikni boshqarish tuzilmasini belgilash, shu jumladan qarz muddati tahlili, ustuvorlik modellarini yaratish, qarzlarni hisobdan chiqarish qoidalari va qarzlarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish;

xavflarni boshqarish (CRM) va tahlil bo'limlari bilan hamkorlik qilish qarzdorlikni undirish choralari ustuvorlashtiruvchi xavf modellari yaratish va qo'llab-quvvatlash;

majburiy ijro vositalari va mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish — hisob varaqlarini to'xtatish, mol mulkka taqiq qo'yish, garov huquqlari, respublikadan chiqish taqiqlari va uchinchi tomon orqali undirish kabi standart choralarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash;

qarzdorlikni undirish bo'yicha raqamli tizimlar va avtomatlashtirish jarayonlarini nazorat qilish, joylardagi qarzdorlikni undirish xodimlari uchun o'quv materiallari va metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

huquqiy vakolatlar, muzokaralar olib borish ko'nikmalari va qarzdorlikni undirish bo'yicha qo'llanmalar, standart operatsion protseduralar (SOP) va o'quv dasturlarini ish faoliyatini monitoring qilish uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) panellarini ishlab chiqish (masalan, undirilgan qarz darajasi, qarz muddati, umumiy qarzga nisbatan undirish koeffitsienti), undirish olish va majburiy ijro bo'yicha yillik tezkor rejalarni shakllantirish va amalga oshirish lozim.

Soliq hisobotlarini qabul qilish va ularni monitoring qilish davlat soliq organlari faoliyatida muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayon tadbirkorlik sub'ektlarining fiskal

majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq ado etishini ta'minlash, hamda soliq intizomini mustahkamlashga qaratilgan.

Soliq hisobotlarini qabul qilish jarayoni avtomatlashtirilgan elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki DSQning elektron soliq tizimi (soliq.uz) orqali hisobotlarni taqdim etish imkoni mavjud. Bu usul soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratib, qog'ozbozlikni kamaytiradi hamda hujjatlar tezkor qabul qilinishiga xizmat qiladi. Monitoring va tahlil etish mexanizmlari bo'yicha soliq hisobotlarini monitoring qilish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

- avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni solishtirish: turli manbalardan (bank ma'lumotlari, hisobvara-fakturalar, eksport-import ma'lumotlari) kelib tushgan ma'lumotlar bilan soliq hisobotlari taqqoslanadi;

- risk asosida baholash modeli: soliq to'lovchi faoliyatining tavakkalchilik darajasiga qarab, uning hisobotlari chuqur tahlil qilinadi;

- tarmoqlararo ma'lumotlar almashinuvi: boshqa davlat organlari bilan ma'lumot almashish orqali noaniqliklar va risklar aniqlanadi.

Hisobotlarni tekshirish va avtomat ogohlantirish bo'yicha soliq organlari hisobotlardagi xatoliklarni aniqlashda avtomatlashtirilgan tekshiruv funksiyalaridan foydalanadi. Agar hisobotda nosozlik yoki o'zgarish bo'lsa, soliq to'lovchiga elektron xabarnoma yoki ogohlantirish yuboriladi. Bu tizim tadbirkorga o'z vaqtida tuzatish kiritish imkonini yaratadi va jarimalarning oldini oladi. Hisobotlarni tahlil qilishning innovatsion usullari bo'yicha "Big Data" texnologiyasida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali aniq fiskal xulosalar chiqariladi. "Business Intelligence" platformalarida vizual tahlil va hisobotlarning dinamikasini kuzatish imkoniyati tug'iladi. AI yordamidagi tahlilda hisobotlardagi patternlar va tendensiyalar sun'iy intellekt orqali tahlil qilinadi.

Soliq hisobotlarini qabul qilish va monitoring qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish joriy qilingani sababli, bu jarayon ham samarali, ham shaffof bo'lib bormoqda. Bunday yondashuvlar tadbirkorlik sub'ektlariga ham, soliq organlariga ham o'zaro ishonch va ochiqlik muhitini yaratadi.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish metodologiyasi nafaqat soliq to'lovchilarning fiskal majburiyatlarini ado etishini ta'minlash, balki davlat budjeti barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda ushbu sohadagi global tendensiyalar va mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, metodologik yondashuvlarni muntazam yangilab borish zarurligi tobora ortmoqda.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan nazorat va monitoring mexanizmlarini keng joriy etish soliq ma'murchiligining shaffofligini va samaradorligini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, soliq hisobotlarini onlayn qabul qilish, risk-modellash tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil usullarini o'z ichiga oladi. Masalan, "elektron hisobvara-faktura", "e-audit" kabi dasturlar soliq hujjatlarini tekshirishda inson omilini kamaytirish orqali adolatlilikni oshiradi.

Ikkinchidan, soliq to'lovchilar bilan kommunikatsiyani takomillashtirish, ya'ni murojaatlarga tezkor va asosli javob qaytarish, foydalanuvchi uchun qulay elektron platforma yaratish, soliq huquqiy munosabatlarida ishonch muhitini shakllantiradi. Bu borada soliq organlari xodimlarining xizmat madaniyatini oshirish, "muammoga yechim berish" tamoyili asosida ishlash ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, huquqiy bazani takomillashtirish, ya'ni amaldagi Soliq kodeksi va qonunosti hujjatlarni zamonaviy iqtisodiy sharoitga mos holda qayta ko'rib chiqish zarur. Soliq organlarining vakolati, nazorat mexanizmi, javobgarlik mezonlari, va soliq to'lovchilarning huquqlari aniq belgilanishi metodologiyaning barqarorligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Soliq ma'murchiligi metodologiyasini takomillashtirishning
institutsional besh tamoyili**

Yo'nalish	Qisqacha izoh
1. Avtomatlashtirilgan tahlil	Elektron EHF, bank ma'lumotlari, mehnat shartnomalari va tovar harakati bo'yicha birlashtirilgan tahlilni amalga oshirish
2. Mahalliy risk indeksi	Har bir tuman/shahar bo'yicha soliq risk indeksi ishlab chiqish va reytinglash
3. Nazorat qilish tartibini yo'naltirish	Nazorat faoliyatini risk darajasiga qarab yo'naltirish, joyida emas, masofaviy shaklda amalga oshirish
4. Fuqarolik nazorati va shaffoflik	Soliq to'lovchilarga risk reytingi haqida axborot berish, ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish
5. AI yordamida identifikatsiyalash	Soliqqa oid shubhali faoliyatni mashinali o'rganish orqali avtomat aniqlash

Manba: Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu 3-jadvalda soliq ma'murchiligi metodologiyasini takomillashtirishning 5 ta muhim institutsional tamoyillari va ularning xususiyatlari keltirilgan bo'lib, ularning har biri zamonaviy axborot texnologiyalari va tahlil usullari bilan chambarchas bog'liq holda bo'ladi. Ularning har biri bo'yicha tahliliy izoh taqdim etamiz. Avtomatlashtirilgan tahlil bo'yicha soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonida avtomatlashtirilgan tahlil markaziy o'rin tutadi. Elektron hisobvara-fakturalar (EHF), bank operatsiyalari, mehnat shartnomalari va tovar harakati ma'lumotlarini o'zaro integratsiya qilish orqali soliq organlari tadbirkorlik sub'ektlarining real iqtisodiy faoliyatini tezkor va xolis baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yo'nalish soliq tushumlarini to'g'ri hisobga olish va soliq to'lovchilarni tavakkalchilik asosida baholashga xizmat qiladi. Mahalliy risk indeksi bo'yicha soliq risklarini geografik kesimda baholash uchun tuman va shaharlar darajasida alohida risk indeksi ishlab chiqilishi dolzarb ahamiyatga ega. Bunday indeks tadbirkorlik muhiti, hududiy faoliyat xossalari va soliq to'lashdagi intizomni hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim. Bu esa nazorat resurslarini aniq manzilli va samarali taqsimlash imkonini yaratadi. Nazorat qilish tartibini yo'naltirish bo'yicha nazoratni joyida emas, masofaviy tahlil asosida amalga oshirish orqali soliq organlari o'z resurslarini tejashi va tadbirkorlik faoliyatiga minimal aralashuvni ta'minlashi mumkin. Bu jarayonda risk indeksiga asoslangan tahlil nazarda tutiladi, ya'ni faqat yuqori xavfli deb topilgan sub'ektlargina tekshirishga jalb qilinadi. Bu tajriba samaradorlik va odillikni ta'minlaydi. Fuqarolik nazorati va shaffoflik bo'yicha soliq to'lovchilarga ularning risk reytingi haqida ma'lumot berish hamda ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish ularning xabardorligini oshiradi va o'zini o'zi nazorat qilish muhitini rivojlantiradi.

Bu o'z navbatida, soliq intizomini kuchaytirishga, davlat bilan fuqaro o'rtasidagi ishonch mustahkamlanishiga olib keladi. AI yordamida identifikatsiyalash bo'yicha sun'iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanib, shubhali operatsiyalarni aniqlash soliq ma'murchiligida yangi bosqichni belgilaydi. Bu usul orqali katta ma'lumotlar tahlil qilinib, tizimga noodatij kirimlar, qisqa muddatli faoliyatlar yoki harakatsiz sub'ektlar orqali amalga oshirilgan soliqdan qochish holatlari avtomatik ravishda aniqlanadi. Yuqorida ko'rsatilgan har bir yo'nalish O'zbekistonda soliq ma'murchiligi metodologiyasini takomillashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirish, mahalliy tahlil, masofaviy nazorat, fuqarolik shaffofligi va AI orqali shubhali faoliyatlarni aniqlash — bularning barchasi zamonaviy va samarali soliq ma'murchiligi uchun muhim ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Bu yondashuvlar iqtisodiy o'sish va soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'murchiligidagi muammolardan biri bu uning strategiyasini belgilab olish masalasidir. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotlarimiz doirasidagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'murchiligini

rivojlantirishning strategiyasida uning asosiy qadriyatlari va asosiy elementlarini aks ettiruvchi Ilmiy yondoshuvimizni keltirib o'tmoqchimiz. Ushbu keltirilgan "O'zbekiston soliq tizimida soliq ma'murchiligini rivojlantirishning strategiyasi"ning mohiyati va uning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu strategiya moslashuvchanlik, kreativlik va istiqbolni ko'ra bilish qobiliyatlari bilan yondashishni ifodalaydi, unga amal qilish soliq muhitini yaxshilash, raqamli transformatsiyani rag'batlantirish, soliq ma'murchiligida shaffoflikni ta'minlash va ishchi kuchi samaradorligini oshirishga imkoniyat tug'diradi, shuningdek, mazkur strategiyaning zamirida zamonaviy, inklyuziv va moslashuvchan soliq tizimini yaratish nazarda tutilganki, bunda soliq to'lovchilar bilan o'zaro aloqalarni va faoliyat yo'nalishlarini o'zgartirishni hamda iqtisodiyot va jamiyatning umumiy rivojiga hissa qo'shishni maqsadga erishishda hamda kelgusida soliq tizimining nafaqat samarali, balki shaffof, hisobdor va adolatli bo'lishini ta'minlab, iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy faollikni oshirish uchun zamin yaratadi.

Mazkur strategiyada asosiy masala "mijoz"larga yo'naltirilgan xizmatga qaratilishi lozim bo'ladi, chunki, bu shaffoflikni oshirish va mijozlarga yo'naltirilgan yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etishga intilishga sharoit yaratish orqali ishonchli soliq to'lovchilarning ehtiyojlari va manfaatlariga mos xizmat ko'rsatish hamda soliq to'lovchilarning qonunchilikka rioya etishini yaxshilash uchun o'z tizimlarimizni takomillashtirishga erishishga yordam beradi, bu esa, soliq tizimining samaradorligi va adolatliligini oshirish uchun raqamli vositalar va ilg'or texnologiyalarga katta sarmoyalar kiritishni, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida soliqdan qochish holatlarini aniqlash, soliq nazoratni kuchaytirish va barcha soliq to'lovchilar uchun teng raqobat muhitini yaratishni taqozo qiladi. Soliq ma'murchiligini mahalliy darajada takomillashtirish risklarga asoslangan yondashuvni joriy etish bilan bog'liq. Buning uchun avtomatlashtirilgan tahlil, "Data Mining" va risk-modellashtirish kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanish lozim. Ayniqsa, mahalliy darajada risk kartalarini shakllantirish va soliq to'lovchilarni reytinglash samaradorlikni keskin oshiradi.

Soliq ma'murchiligi metodologiyasini takomillashtirish faqatgina texnik o'zgarishlar emas, balki tizimli, ilmiy asoslangan, inson kapitalini rivojlantirish va raqamli transformatsiyani o'z ichiga olgan keng qamrovli jarayondir. Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar O'zbekistonda soliq siyosati samaradorligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Quyida soliq risklarini boshqarish va soliq nazorati tizimini optimallashtirish bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan:

1. Riskka asoslangan soliq nazorati. An'anaviy tekshiruvlardan voz kechib, ma'lumotlarni tahlil qilish asosida "profilaktik" nazoratga o'tish zarur.

Har bir soliq to'lovchi uchun avtomatlashtirilgan "Risk profili"ni yaratish. Bunda aylanma hajmi, ishchilar soni, tovar aylanmasi va sohaga xos bo'lgan o'rtacha ko'rsatkichlar (benchmarking) solishtiriladi. "Qizil" hududlarni avtomatik aniqlash: Sun'iy intellekt orqali soliq to'lovchilarning operatsiyalaridagi g'ayritabiiy holatlarni (masalan, tovar-moddiy boyliklarning keskin oshishi yoki kamayishi) real vaqt rejimida aniqlash va tekshiruvsiz "masofaviy nazorat" orqali tushuntirish xatlarini yuborish.

2. Mahalliy soliq bazasini kengaytirish. Mahalliy hokimliklar va soliq organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mumkin. Kadastr va soliq ma'lumotlarining sinxronizatsiyasi: Yer va mulk solig'i bazasini aniqlashtirish uchun kadastr raqamlarini soliq to'lovchining shaxsiy kabineti bilan to'liq integratsiya qilish. Foydalanilmayotgan yoki noqonuniy foydalanilayotgan obyektlarni aniqlashda dronlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlaridan (GIS texnologiyalari) foydalanish. Mahalliy tadbirkorlik subyektlari bilan "Soliq maslahatchisi" tizimi: Soliq inspeksiyalarida "tekshiruvchi" emas, balki "yordamchi" rolini o'ynaydigan maslahat guruhlarini tashkil etish. Bu yirik soliq to'lovchilar uchun emas, ayniqsa kichik biznes uchun xatolarni oldindan tuzatish imkonini beradi.

3. Soliq nazorati metodologiyasini soddalashtirish. Soliq xizmatlarini "proaktiv" (tashabbuskor) qilish: Soliq organlari o'zlari to'lovchilarga majburiyatlarni eslatishi yoki soliq imtiyozlari haqida avtomatik xabarnomalar yuborishi kerak. Bu "majburiy undirish"dan "ixtiyoriy to'lash" madaniyatiga o'tishni ta'minlaydi. Soliq nazorati jarayonlarida ochiqlik: Soliq tekshiruvlari jarayonini "Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti"da onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish. Tekshiruv natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilinishida inson omilini kamaytirish uchun "Soliq komissiyasi" qarorlarini avtomatlashtirilgan algoritmlar bilan solishtirish.

4. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha mexanizmlar. "Keshbek" tizimini yanada rag'batlantirish: Hududlarda xaridlar uchun beriladigan keshbek tizimini mahalliy xizmat ko'rsatish sohasiga (ta'mirlash, xususiy ta'lim, maishiy xizmat) ko'proq tatbiq etish. Taqqoslash tahlili: Bank operatsiyalari, onlayn-kassalar va soliq hisobotlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash orqali soliq uzilishlarini (tax gap) minimallashtirish.

Adabiyotlar / Lumeputamypa / Reference:

Александрова Л.И. (2017) Основные особенности и проблемы выявления уклонений от уплаты налогов. // Актуальные проблемы правового регулирования. С.2.

Musgrave R.A., Musgrave P.B. (1989) *Public Finance in Theory and Practice*. – New York: McGraw-Hill.

Samuelson P.A., Nordhaus W.D. (2010) *Economics*. – New York: McGraw-Hill Education.

Schneider F., Enste D.H. *The Shadow Economy: An International Survey*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

Stiglitz J.E. (2000) *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton & Company.

Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li (2026) "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish masalalari" I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati –T.: - 11 b.

Абдурахмонов Қ.Х. (2020) *Давлат молияси ва солиқ сиёсати*. –Тошкент: Fan va texnologiya.

Вахабов А.В. *Солиқлар ва солиққа тортиш*. – Тошкент: Иқтисод–молия, 2019.

Гончаренко Л.И. (2018) *Налоговый контроль: теория и практика*. –М.: Финансы и статистика.

Коттке К. (1998) «Грязный» деньги – что это такое? Справочник по налоговому законодательству в области «грязных» денег. –М.,

Майбуров И.А. (2020) *Налоги и налогообложение: учебник*. –М.: Юрайт.,

Маковеский С.А., Зареская Й.А. (2017) Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания. Вестник института экономических исследований, № 3(7) 156.

Оленников С.М. (2017) Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления. // Юридическая ответственность и ответственные юристы. №4. С.37-42.

Солиқ кодекси (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи. - 640 б.

Юткина Т.Ф. (2019) *Налоги и налогообложение*. –М.: ИНФРА-М.,